Amaldagi O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonunida barcha buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish majburiyligi belgilangan bo'lib, unga ko'ra: «Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotlarni tuzishdan iboratdir»¹.

1 O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuni. <https://lex.uz/acts/90762>



Bundan ko'rinadiki, buxgalteriya hisobi subyektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishdan ko'zlangan asosiy maqsad «...mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarga mazkur tashkilotni resurslar bilan ta'minlash to'g'risida qaror qabul qilishda foydali bo'ladigan hisobot beruvchi tashkilot haqidagi moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishdan iboratdir»².

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli³ qarorida sug'urta tashkilotlari 2021-yil 1-yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021-yil yakuni bo'yicha MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlaydi.

Demak, sug'urta tashkilotlari MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyekti hisoblanib, moliyaviy hisobotning «Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot» shaklida o'zining moliyaviy ahvoli to'g'risidagi axborotlarni yoritib beradi.

Sug'urta zaxiralari moliyaviy hisobotning muhim elementlaridan biri bo'lib, ular sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi, to'lovga layoqatligi va moliyaviy mustaqilligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar asosida moliyaviy holatiga baho berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralarini to'g'ri shakllantirish hamda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda ishonchli va haqqoniy ma'lumotlarning aks ettirilishiga bevosita bog'liqdir. Shu bois, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda sug'urta zaxiralarini aks ettirish tartibini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi olimlar tomonidan MHXS talablariga muvofiq takomillashtirishga qaratilgan umumiy yondashuvlar berilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Yu.A. Papova⁴ sug'urta kompaniyasining yillik buxgalteriya hisobotlari shakllari sifatida "Buxgalteriya balansi", "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot", "Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot", "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" hamda sug'urta tashkilotining buxgalteriya hisobotiga izohlarni tasniflab, ularning mazmuniga qisqacha tavsif beradi. Xususan, muallif "Buxgalteriya balansi"ning aktiv va passiv qismlarining tarkibiy tuzilmasini umumiy nazariy asoslarda yoritish bilan cheklanadi.

N.B. Abdusalomova 17-son MHXSning joriy etilishi moliyaviy hisobot shakllarida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelganligini ta'kidlab, asosiy o'zgarishlarni quyidagicha ifodalaydi: "aktiv sifatida tan olingan sug'urta shartnomalari portfelli majburiyat sifatida tan olingan portfellardan alohida taqdim etiladi. Bu sug'urta va qayta sug'urta shartnomalariga ham tegishli; sug'urta majburiyatlarini baholash jarayonida sotib olishdan olingan pul oqimlari, debitorlik qarzlari va olinmagan mukofotlar hisobga olinadi"⁵.

M.A. Abduraimovanning ta'kidlashicha, sug'urta tashkilotining moliyaviy hisobotlari o'z ichiga buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl), pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl), xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni (5-shakl) qamrab oladi. Ushbu hisobotlarga qo'shimcha ravishda "Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot" ham taqdim etiladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar ilova qilinadi. Xalqaro standartlar bo'yicha moliyaviy hisobotni tuzishga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlar tan olinadigan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot hamda daromadlar va xarajatlar tan olinadigan yalpi daromad to'g'risidagi hisobot.⁶

Shu bilan birga, muallif sug'urta tashkilotlari buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilishini tasniflab, unda sug'urta zaxiralarini balansning passiv qismida aks ettirish hamda qayta sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralardagi ulushi to'g'risidagi axborotlarni yoritish zarurligini qayd etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi sug'urta tashkilotlari tomonidan 17-son MHXS asosida hisoblangan sug'urta zaxiralarini moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirish hamda uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida ilmiy umumlashtirish, mantiqiy tahlil, taqqoslash

2 O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/6312360>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>

4 Popova Yu.A. Normativnye aspekty regulirovaniya buxgalterskogo ucheta v straxovyx organizatsiyax. Vektor ekonomiki. №2, 2021. ISSN 2500-3666. www.vectoreconomy.ru

5 Abdusalomova N.B. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. 2024, 4(05), -88 bet.

6 Abduraimova M.A. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2024, 4(02), 217-226 betlar.



va statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, mavzuni chuqur o'rganish jarayonida mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy maqolalar tahlili asosiy axborot manbai sifatida xizmat qildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, yuqoridagi iqtisodchi olimlarning yondashuvlari sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish hamda unda ma'lumotlarni aks ettirish tartibini yanada takomillashtirishga ham uslubiy, ham amaliy jihatdan muhim hissa qo'shishini e'tirof etish lozim. Olib borilgan tadqiqot natijalari moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda sug'urta zaxiralarini aks ettirish va ularga doir ma'lumotlarni yoritib berish jarayonida mavjud tajribani yanada rivojlantirish hamda uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Birinchidan, MHXS asosida sug'urta zaxiralarini tasniflashda yagona yondashuvning mavjud emasligi, uzoq muddatli va joriy majburiyatlar o'rtasidagi chegaraning aniq belgilanmaganligi, shuningdek sug'urta zaxiralarini baholashda qo'llanilgan parametrlarning moliyaviy hisobot izohlarida yetarli darajada yoritib berilmasligi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot axborotlarining shaffofligi va taqqoslanuvchanligini pasaytirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini cheklaydi.

Ikkinchidan, 17-son "Sug'urta shartnomalari" MHXSda sug'urta zaxiralarini moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirish bo'yicha yangi talablar belgilangan. Unga muvofiq "Sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi", "Risk bo'yicha tuzatish" va "Eng yaxshi taxmin bo'yicha javobgarlik" kabi elementlarni ajratib ko'rsatish hamda ularni hisobotda alohida ochib berish nazarda tutilgan. Biroq mazkur talablarni milliy hisob tizimida sug'urta tashkilotlari amaliyotiga joriy etishda tashkiliy va uslubiy muammolar mavjud.

Uchinchidan, sug'urta tashkilotlari MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlovchi buxgalteriya hisobi subyektlari hisoblanadi. MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobot shakllari vakolatli organ buyrug'i bilan tasdiqlangan holda amaliyotga joriy etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-oktabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-181-son⁷ Farmoni asosida "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi Nizom" tasdiqlangan. Mazkur Nizomga muvofiq MHXS asosida hisobot tayyorlovchi buxgalteriya hisobi subyektlarining moliyaviy hisobot shakllari quyidagilarni o'z ichiga olishi belgilangan (1-rasm).




1-rasm. MHXS asosida hisobot tayyorlovchi buxgalteriya hisobi subyektlari yillik moliyaviy hisobot shakllarining tasnifi.⁸

Shuni ta'kidlash joizki, mazkur Nizom sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotining tarkibi va mazmunini belgilamaydi. Shu bois sug'urta tashkilotlari soliq organlari, statistika organlari, istiqbolli loyihalar milliy agentligi hamda boshqa moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi "Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 37-sonli⁹ buyrug'i bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllarini belgilangan tartibda rasmiylashtirib taqdim etib kelmoqda (2-rasm).

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-oktabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-181-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-7761763?query=Qishloq>

8 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

9 O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi "Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 37-sonli buyrug'i. <https://lex.uz/docs/1472739>

2-rasm. Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobot shakllarining tasniflanishi¹⁰.

2-rasmda sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobot shakllarining tasniflanishi keltirilgan bo'lib, mazkur shakllar amalda sug'urta faoliyati natijalarini aks ettirishda asosiy axborot manbai sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos jihatlari hisobga olgan holda, amaliyotda moliyaviy axborotlarni taqdim etishning qo'shimcha mexanizmlaridan ham foydalanilmoqda. Xususan, soliq sohasida vakolatli organ hisoblangan soliq organlari tomonidan sug'urta tashkilotlaridan soliq organlaridagi shaxsiy kabinet orqali "MHXSga o'tgan sug'urta tashkilotlari moliyaviy holat to'g'risidagi ma'lumot" hamda "MHXSga o'tgan sug'urta tashkilotlarining foyda va zarar to'g'risidagi ma'lumoti" shakllarini rasmiylashtirib taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Mazkur ma'lumotnoma shakllari sug'urta tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi axborotlarni jamlash va manfaatdor foydalanuvchilarga yetkazishda qo'shimcha axborot manbai sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, monografik tadqiqot obyekti hisoblangan "Xalq sug'urta" AJ tomonidan soliq organidagi shaxsiy kabinet orqali shakllantirilgan "MHXSga o'tgan sug'urta tashkilotlari moliyaviy holat to'g'risidagi ma'lumot" shakli belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan holda taqdim etilgan (1-jadval).

1-jadval. MHXSga o'tgan sug'urta tashkilotlari moliyaviy holat to'g'risidagi ma'lumot¹¹

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	31.12.2022	31.12.2023	31.12.2024
1	2	3	4	5
Aktivlar	x	x	x	x
Uzoq muddatli aktivlar	x	x	x	x
Asosiy vositalar	010	1253277,53	780798	2398649
Uzoq muddatli investitsiyalar	020	2704539,1	38454539	31950124
Kapital qo'yilmalar	030			
Jami uzoq muddatli aktivlar (satr.010+020+030)	040	3957816,62	39235337	34348773
Joriy aktivlar	x	x	x	x
Pul mablag'lari va ekvivalentlari	050	12893424,21	1270186	1546935
Qisqa muddatli investitsiyalar	060	116500000	111750000	196375151
Debitor qarzdorliklar	070	1302697,11	422632	1976060
Sug'urta majburiyatlari zaxirasining qayta sug'urtalovchi ulushi	080	1850608,06	1651530	540548
Berilgan kreditlar va avanslar	090			
Soliq va yig'imlar bo'yicha avans to'lovlari	100	538090,30		506002
Tovar moddiy zaxiralar	110	203939,5		
Boshqa joriy aktivlar	120	8509891,59	8100866	4436992
Jami joriy aktivlar (satr.050+060+070+080+090+100+110+120)	130	141798650,77	123195214	205381688
Jami aktivlar (satr.040+130)	140	145756467,39	162430551	239730461
Kapital va majburiyatlar	x	x	x	x

¹⁰ Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹¹ «Xalq sug'urta» AJning soliq organidagi shaxsiy kabineti ma'lumoti asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.



Kapital	x	x	x	x
Ustav kapitali	150	45000000	45000000	80000000
Rezerv kapitali	160	2271665,55	2852877	3423934
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	170	10787426,38	12102069	2767687
Jami kapital jami (sitr.150+160+170)	180	58059091,93	59954946	86191621
Majburiyatlar	x	x	x	x
Uzoq muddatli majburiyatlar	x	x	x	x
Kechiktirilgan soliq majburiyatlari	190			
Sug'urta bo'yicha rezervlar	200	85961930,17	95610855	128826759
Jami uzoq muddatli majburiyatlar jami (sitr.190+200)	210	85961930,17	95610855	128826759
Joriy majburiyatlar	x	x	x	x
Kreditorlik qarzdorliklari	220	163390,2	373784	1914276
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	230		301877	1013157
Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	240			
Olingan bo'naklar	250	6155,75		
Xodimlar bilan hisob-kitoblar	260	847270	895897	227733
Boshqa joriy majburiyatlar	270	718629,34	5293192	21556915
Jami joriy majburiyatlar jami (sitr.220+230+240+250+260+270)	280	1735445,29	6864750	24712081
Jami majburiyatlar jami (sitr.210+280)	290	87697375,46	102475605	153538840
Jami kapital va majburiyatlar jami (sitr.180+290)	300	145756467,39	162430551	239730461

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "MHXSga o'tgan sug'urta tashkilotlari moliyaviy holat to'g'risidagi ma'lumot" shaklining "Joriy aktivlar" bo'limida "Sug'urta majburiyatlari zaxirasining qayta sug'urtalovchi ulushi" hamda "Majburiyatlar" bo'limining "Uzoq muddatli majburiyatlar" qismida "Sug'urta bo'yicha rezervlar" to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Fikrimizcha, mazkur shaklda sug'urta bo'yicha rezervlar uzoq muddatli majburiyat sifatida tan olinganligini inobatga olgan holda, ushbu sug'urta rezervlaridagi qayta sug'urtaning ulushi ham uzoq muddatli aktivlar tarkibida ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki sug'urta zaxiralaridagi qayta sug'urtaning ulushini joriy aktivlar tarkibida tan olish moliyaviy hisobot talablariga mos kelmaydi.

Shuningdek, sug'urta tashkilotlari, xususan tadqiqot obyekti bo'lgan "Xalq sug'urta" AJ tomonidan taqdim etilayotgan O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi "Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 37-sonli¹² buyrug'i bilan tasdiqlangan "Buxgalteriya balansi" da sug'urta zaxiralarining aks ettirilishi o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (2-jadval).

2-jadval. "Xalq sug'urta" AJning 2025-yil 2 chorak yakunlari bo'yicha "Buxgalteriya balansi" da aks ettirilgan sug'urta zaxiralari to'g'risida ma'lumot¹³ (ming so'mda)

Schyot raqami	Sug'urta zaxirasining nomlanishi	Davr boshiga qoldiq	Davr oxiriga qoldiq
8000	Jami sug'urta zaxiralari	145 659 030,33	158 102 283,80
8010	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi	125 866 263,84	114 967 218,43
8020	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi	11 093 848,00	20 571 076,16
8030	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi	5 252 285,15	18 993 525,04
8040	Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi	—	—
8050	Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi	—	—

12 O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi "Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 37-sonli buyrug'i. <https://lex.uz/docs/1472739>

13 «Xalq sug'urta» AJning moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan



8060	Falokatlar zaxirasi	–	–
8070	Zararlilikning tebranishi zaxirasi	3 446 633,34	3 570 464,17
8090	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralar	–	–
8100	Qayta sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralaridagi ulushi	813 788,88	515 518,58
8110	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	740 790,13	460 854,45
8120	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	–	–
8130	Sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	72 998,75	54 664,13
8140	Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralardagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi	–	–
—	Sof sug'urta zaxiralari	144 845 241,45	157 586 765,22

2-jadval ma'lumotlari sug'urta zaxiralari turlari kesimida hisobot davri oxirida ularning hisobot davri boshiga nisbatan o'zgarish dinamikasini hamda ushbu zaxiralarda qayta sug'urtaning ulushini tahlil qilish imkonini beradi. Biroq mazkur axborotlar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni sug'urta zaxiralari to'g'risida to'liq va tizimli ravishda ochib berilgan ma'lumotlar bilan ta'minlamaydi. Jumladan, "Buxgalteriya balansi"da aks ettirilgan "Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi"ning uzoq va qisqa muddatli qismlarga taqsimlanishi, ularning qaysi sug'urta turlari bo'yicha shakllantirilganligi, qaysi hisobot davrlarida daromad sifatida e'tirof etilishi hamda umumiy sug'urta majburiyatlaridagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar ochib berilmagan. Bu esa axborotdan foydalanuvchilarga sug'urta tashkilotining real majburiyatlari hajmi va ularning davriy taqsimlanishi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini bermaydi.

Shuningdek, "Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi" amaldagi "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizom"¹⁴ talablariga muvofiq ravishda sug'urtalanuvchilar tomonidan sug'urta hodisasi haqida xabar berilgan hollarda shakllantiriladi. Biroq amaliyotda sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi haqiqatda yuz bermagan holatlarda ham mazkur zaxiraning shakllantirilishi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasining moliyaviy hisobotda ortiqcha aks ettirilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, moliyaviy hisobot shakllarida hisobot davri oxirida sug'urta zaxiralarning hisobot davri boshiga nisbatan o'zgarishlari harakati to'g'risida batafsil, ya'ni shakllanishi, kamayishi, qayta baholanishi va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha kengaytirilgan axborotlar ochib berilmagan. Bu esa axborotdan foydalanuvchilarni oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o'z vaqtida, o'rinli va to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlamaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, moliyaviy hisobotni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad axborotdan foydalanuvchilarni buxgalteriya hisobi subyekting moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risida haqqoniy, shaffof, to'liq va tushunarli ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat. Biroq yuqorida tadqiq etilgan vakolatli organ tomonidan MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi sug'urta tashkilotlari uchun ishlab chiqilgan ma'lumotnoma shaklida, shuningdek milliy qonunchilik talablariga muvofiq sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tasdiqlangan "Buxgalteriya balansi" shaklida ham sug'urta zaxiralari to'g'risidagi ma'lumotlar axborotdan foydalanuvchilarga oqilona va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli darajada to'liq aks ettirilmagan.

Shu bilan birga, sug'urta tashkilotining "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ining "Majburiyatlar" bo'limida uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar tarkibida sug'urta zaxiralari alohida ko'rsatish lozim. Chunki sug'urta zaxiralari mohiyatan majburiyat hisoblanadi. Bundan tashqari, aktuar hisob-kitoblarni natijasida aniqlangan sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining (qayta sug'urtadagi ulushini hisobga olgan holda) kelgusi 12 oyga tegishli bo'lgan qismini joriy majburiyatlar sifatida, kelgusi 12 oydan ortiq bo'lgan qismini esa uzoq muddatli majburiyatlar sifatida tan olish lozim, deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga asoslangan holda MHXS asosida moliyaviy hisobot tuzuvchi sug'urta tashkilotlarining "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ida MHXSda belgilangan talablardan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot elementi sifatida sug'urta zaxiralari quyidagicha aks ettirishni taklif etamiz (3-jadval).

14 Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/1416862>

3-jadval. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda sug'urta zaxiralarini aks ettirish tartibi (taklif)¹⁵

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	31.12.2023	31.12.2024	31.12.2025
1	2	3	4	5
Kapital va majburiyatlar	x	x	x	x
Majburiyatlar	x	x	x	x
Uzoq muddatli majburiyatlar	x	x	x	x
Kechiktirilgan soliq majburiyatlari	190			
Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi (210+220+230+240)	200			
Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi	210			
Baxtsiz xodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi	220			
Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi	230			
Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi	240			
Sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasida qayta sug'urtaning ulushi (260+270+280+290)	250			
Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	260			
Baxtsiz xodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	270			
Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	280			
Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	290			
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	300			
Jami uzoq muddatli majburiyatlar jami (catr.190+200-250+300)	310			
Joriy majburiyatlar	X	x	x	x
Kreditorlik qarzdorliklari	320			
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	330			
Budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzdorlik	340			
Olingan bo'naklar	350			
Xodimlar bilan hisob-kitoblar	360			
Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining joriy qismi	370			
Sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasida qayta sug'urtaning ulushining joriy qismi	380			
Sodir bo'lgan xodisalar bo'yicha majburiyat	390			
Sodir bo'lgan xodisalar bo'yicha majburiyat-da qayta sug'urtaning ulushi	400			
Risk bo'yicha tuzatish	410			
Eng yaxshi tahmin bo'yicha javobgarlik	420			
Boshqa joriy majburiyatlar	430			
Jami joriy majburiyatlar (catr 320+330+340+350+360+370-380+390-400+410+420+430)	440			
Majburiyatlar jami (catr. 310+440)	450			
Kapital va majburiyatlar jami (catr.180+450)	460			



Fikrimizcha, MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlovchi sug'urta tashkilotlari tomonidan "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da sug'urta zaxiralarini 3-jadvalda keltirilgan tarkibiy tuzilma asosida yoritib berilishi axborotdan foydalanuvchilarga sug'urta zaxiralarining sug'urta hodisalari turlari va ularning amal qilish muddatlari bo'yicha shakllanishi, shuningdek uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar tarkibidagi salmog'i to'g'risida haqqoniy, batafsil va to'liq ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot obyekti bo'lgan "Xalq sug'urta" AJning moliyaviy hisobotlari o'rganilganda, hisobot sanasida amalda bo'lgan barcha sug'urta shartnomalariga tegishli sug'urta javobgarliklari to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq ochib berilmaganligi aniqlanadi. Fikrimizcha, "Xalq sug'urta" AJ sug'urta shartnomalariga tegishli sug'urta javobgarliklari to'g'risidagi ma'lumotlarni moliyaviy hisobot elementi hisoblangan, ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlardan iborat izohlarda (moliyaviy hisobotga izohlar) 17-son MHXSda belgilangan talablar asosida yoritib berishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, sug'urta zaxiralarini moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aks ettirish tartibini takomillashtirish borasida olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Sug'urta zaxiralarining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra majburiyat sifatida e'tirof etilishini inobatga olgan holda, "Sug'urta majburiyatlari zaxirasining qayta sug'urtalovchi ulushi"ni "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ning aktiv qismidagi "Joriy aktivlar" bo'limida emas, balki "Kapital va majburiyatlar" qismining "Majburiyatlar" bo'limi tarkibida aks ettirish maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

2. "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da aktuar hisob-kitoblar natijasida aniqlangan sug'urta shartnomalari bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasini (qayta sug'urtadagi ulushini inobatga olgan holda) kelgusi 12 oyga tegishli bo'lgan qismini joriy majburiyatlar sifatida, ushbu muddatdan ortiq qismini esa uzoq muddatli majburiyatlar sifatida tan olish zarurligi taklif etildi.

3. Xalqaro va milliy amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda tasdiqlangan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning yagona standart shakli mavjud emas. Biroq MHXSda mazkur hisobotda taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotlar tarkibi aniq belgilangan. Shu bois MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlovchi sug'urta tashkilotlari uchun "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da sug'urta zaxiralarini aks ettirishning takomillashtirilgan tartibi taklif etildi. Fikrimizcha, ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi axborotdan foydalanuvchilar uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ahamiyatli, ishonchiligi va tushunarililigi oshirishga xizmat qiladi.

4. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida aks ettirilgan sug'urta zaxiralari bo'yicha ma'lumotlarni ochib berish jarayonida ularning har bir guruhi bo'yicha tasnifni ta'minlagan holda, hisobot sanasida amalda bo'lgan barcha sug'urta shartnomalariga tegishli sug'urta javobgarliklari to'g'risidagi axborotlar 17-son MHXS talablariga muvofiq moliyaviy hisobot elementi hisoblangan, ahamiyatli hisob siyosati va boshqa tushuntirish ma'lumotlardan iborat izohlarda (moliyaviy hisobotga izohlar) yoritilishi lozimligi asoslandi. Mazkur yondashuv 17-son MHXSda belgilangan talablarning to'liq bajarilishini, shuningdek moliyaviy axborotlarning yanada batafsil, ishonchli va qiyoslanuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni. <https://lex.uz/acts/90762>
2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 9-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/6312360>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>
4. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi "Sug'urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllarini va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 37-son buyrug'i. <https://lex.uz/docs/1472739>
5. Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrda 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/1416862>
6. Popova Yu.A. Normativnye aspekty regulirovaniya bukhgalterskogo ucheta v strakhovykh organizatsiyakh. Vektor ekonomiki, № 2, 2021. ISSN 2500-3666. www.vectoreconomy.ru
7. Abdulomova N.B. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024, 4(05), 88-bet.
8. Abduraimova M.A. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024, 4(02), 217–226-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>